

**2018 yil 10 dekabr kuni “Texnik jihatidan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori yuzasidan “Uzstandart” agentligi Bosh direktori D.N Sattarovning 13.12.2018 dagi Uzbekiston 24 telekanalidagi intervysi.**

Qaror bilan bugungi kunda sohadagi mavjud muammoli masalalarni hal etish va tadbirkorlik sub’ektlariga qulayliklar yaratish belgilab berilgan:

1. Bugungi kunda yangi ishga tushirilayotgan ishlab chiqarish quvvatlari va investitsiya loyihalarini qisqa muddatlarda amalga oshirishni ta’minalash maqsadida loyiha tashabbuskorlari uchun bojxona rasmiylashtiruvida sertifikatlashtirish jarayonlarini soddalashtirish – qabul qilingan Qarorning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

Jumladan:

- xususiy biznesni ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan, texnika va texnologik uskunalarni, butlovchi va ehtiyyot qismlarni, shuningdek ishlab chiqarishda foydalaniladigan nooziq-ovqat tovarlarni majburiy sertifikatlashtirishdan ozod etildi(xorijiy muvofiqlik sertifikatlari yoki sinov bayonnomalari taqdim etilganda);

- o‘lchash vositalarini xorijiy davlatlarning sertifikatlari asosida respublikaga olib kirishga ruxsat berildi;

- aynan bir turdagи mahsulotni ijobjiy sinov natijalarini qabul qilgan holda, takrorlovchi sinovlardan o’tkazilishi ta’qiqlandi.

Bu o‘z navbatida tadbirkorlik sub’ektlari uchun bojxona rasmiylashtiruvida sertifikatlashtirish uchun talab etiladigan muddat o‘rtacha 20 kundan 2 kungacha qisqartiradi.

2. Milliy standartlarning uyg‘unlashuv darajasini keskin oshirishni nazarda tutuvchi maqsadli ko‘rsatkichlar tasdiqlanib, 2021 yilga qadar 47 foizga yetkazish belgilandi. Bu degani 2 yil ichida qariyb 7 mingta xujjat qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Taqqoslash uchun, so‘nggi o‘n yil ichida 3,5 mingta standart qabul qilingan.

Sohalar kesimida qaraydigan bo‘lsak, 2021 yil yakuniga qadar xalqaro standartlar ulushini oziq-ovqat sanoatida 82,5 foizga, to‘qimachilik va charm-poyabzal sanoatida 67,3 foizga, qurilishda ikki barobardan ortiq yetkazish ko‘zda tutilmoqda.

Qo‘yilgan vazifalarni tizimli tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlarining standartlarni ishlab chiqish jarayonini muvofiqlashtirish maqsadida, qaror bilan Agentlik qoshida maxsus institut tashkil etilmoqda.

3. Mahsulotlarning xavfsizligini ta’minalashga yo’naltirilgan texnik reglamentlarni ishlab chiqishni nazarda tutuvchi dastur.

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish va amalga joriy etish natijasida ishlab chiqarilayotgan va olib kirilayotgan mahsulotlarga tegishli bo‘lgan xavfsizlik ko‘rsatkichlarini yagona xujjatga jamlash va ushbu talablar bajarilishi natijasida aholiga kafolatlangan xavfsiz mahsulot yetkazib berish yo‘lga qo‘yiladi, xamda aholining sifatsiz mahsulotlar iste’moli natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlari va turli xil og‘ir kasalliklar oldi olinadi. Dastur bilan 42 turdagи mahsulotlar guruxi uchun texnik reglamentlar ishlab chiqiladi. (oziq-ovqat mahsuloti, o‘yinchoqlar, mebel, lok-bo‘yoq, maishiy kimyo, parfyumeriya, kimyoiy himoya vositalari, shinalar)

4. Sohaga oid faoliyatni yanada rivojlantirish maqsadida 28 banddan iborat “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Bunda, amaldagi qonunchilik xujjatlarini qayta ko‘rib chiqish va yangilarini qabul qilish (10 ta band), muvofiqlikni baxolash jarayonlarini takomillashtirish uchun sinov bazasini qayta jixozlash (6 ta band), soxaga ilg‘or axborot texnologiyalarini jalb qilish (5 ta band) va boshqa masalalarga e’tibor qaratilgan.

“Yo‘l xaritasi”da sanoat tarmoqlarini istiqbollarini inobatga olgan xolda, yangi xalqaro sinov usullarini joriy qilish, zamonaviy laboratoriyalari tashkil qilish uchun 24,0 mln. dollarlik xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy investorlar mablag‘larini jalb qilish ko‘zda tutilgan.

5. Qaror bilan yuklatilgan vazifalarni sifatli va to‘laqonli bajarilishini ta’minalash maqsadida agentlikning markaziy apparati va tashkiliy yangilangan tuzilmalari tasdiqlandi. Bunda, xorijiy yuqori malakali mutaxassislar bilan tizimni yanada takomillashtirib borish, faoliyat samaradorligini baholash mezonlari tasdiqlandi.

Agentlik qoshida tashkil etilayotgan Departament zimmasiga tadbirkorlik sub'ektlariga standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonun hujjatlari talablariga amal qilinishini ta'minlashda amaliy yordam ko'rsatish vazifalari yuklatildi.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan Qaror iqtisodiyotimizni bugungi kundagi jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, mahalliy mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish orqali eksport geografiyasini kengaytirish xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.